




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

YANVAR-IYUN 2019 YIL


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 5672,1 mlrd.so'mni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 5057,5 mlrd.so'mni, o'rmon xo'jaligi 605,0 mlrd.so'mni, baliq xo'jaligida 9,3 mlrd.so'mni hamda ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko'rsatishda 0,3 mlrd.so'mni tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning o'sish sur'atlari % da



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Kosonsoy (110,5%), Chotoq (106,4%), Pop (105,3%), Uychi (104,4%), Namangan (103,7%), To'raqo'rg'on (103,5%), tumanlarida kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi % da




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Yangi qo'rg'on tumanining ulushi 11,6%ni tashkil etdi va hududlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, Namangan tumani esa 10,5% ko'rsatkich bilan keyingi o'rinni egalladi. Eng kam ulush Mingbuloq (5,7%) va Kosonsoy (5,0%) tumanlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 5047,6 mlrd.so'mni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 2706,9 mlrd.so'mni, chorvachilik mahsulotlari 2340,7 mlrd.so'mni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi % da



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmning 79,9%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 18,6%i fermer xo'jaliklariga, 1,5%i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida % da



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 2340,7 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 113,8%ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 46,6%ni tashkil qildi.



Hosil yig'imi. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 326,1 ming tonna jami don (2,4% ga ko'p), 320,2 ming tonna bug'doy (1,5% ga ko'p), 106,6 ming tonna kartoshka (13,7% ga ko'p), 224,4 ming tonna sabzavot (3,5% ga ko'p), 8,9 ming tonna poliz (0,8% ga ko'p) yig'ib olindi, 58,7 ming tonna meva va rezavorlar (1,5% ga ko'p), 3,0 ming tonna uzum (16,8% ga ko'p), etishtirildi.

Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Shu jumladan					
			Fermar xo'jaliklari		Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	O'sish sur'ati, %	tonna	O'sish sur'ati, %	tonna	O'sish sur'ati, %	tonna	O'sish sur'ati, %
Jami don	326144	102,4	286792	108,7	36426	70,5	2926	96,2
Shu umladan boshqoli don	320223	101,3	286117	108,5	31330	63,7	2776	91,2
shundan: bug'doy	320178	101,5	286072	108,6	31330	63,7	2776	91,2
Kartoshka	106624	113,7	7235	136,0	99359	112,4	30	107,1
Sabzavot	224357	103,5	16761	119,0	204992	102,3	2604	114,1
Poliz	8910	100,8	1850	99,0	6972	101,2	88	108,6
Meva va rezavorlar	58682	101,5	15166	96,9	42358	102,0	1158	188,9
Uzum	3032	116,8	805	219,9	2219	100,4	8	44,4

ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari %da



Chorvachilik




2019 yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2706,9 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 118,4%ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarininzg ulushi 53,6%ni tashkil etdi.

2019 yilning 1 iyul holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 102,6%ga (jami 693,7 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 101,6%ga (226,5 ming bosh), qo'y va echkilar 103,3%ga (760,4 ming bosh), otlar 101,6%ga (6459 bosh), parrandalar 105,1%ga (4950,5 ming boshga) ko'paydi.


2019 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda tirik vazn hisobida 65,1 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 3,0%ga ko'p), 202,0 ming tonna sut (3,4%ga ko'p), 295,1 mln.dona tuxum (25,7%ga ko'p), 0,8 ming tonna jun (3,0%ga ko'p), 0,2 ming tonna asal (16,6%ga ko'p), 0,8 ming tonna baliq (0,8%ga ko'p), 1,5 ming tonna pilla (21,3%ga ko'p) ishlab chiqarildi.

Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik baliqchilik mahsulotlari hududlar kesimida

■ Go'sht(tonna)




■ Sut (tonna)






■ *Tuxum (ming dona)*




■ *Baliq (tonna)*



Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni


2019 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 693,7 ming boshga, shu jumladan sigirlar 226,5 ming boshga, qo'y va echkilar 760,4 ming boshga, parrandalar 4950,5 ming boshga yetdi. 2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 17,7 ming boshga (2,6%ga), shu jumladan sigirlar 3,5 ming boshga (1,6%ga), qo'y va echkilar 24,3 ming boshga (3,3%ga), parrandalar 238,8 ming boshga (5,1%ga) ko'paydi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi %da




2019 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,0%i fermer xo'jaliklari, 95,4%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, 0,6%i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 3,5%i fermer xo'jaliklariga, 96,1%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,4%i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 41,6%i fermer xo'jaliklariga, 37,3%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 21,1%i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


Qoramol va parrandalar bosh soni hududlar kesimida 2019 yil 1 iyul holatiga




■ *Shu jumladan sigirlar (bosh)*



■ *Qo'y va echkilar (bosh)*




■ *Parrandalar jami (ming boshda)*



Hosil yig'imi. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida fermer xo'jaliklar tomonidan 286,8 ming tonna jami don (8,7% ga ko'p), 286,1 ming tonna bug'doy (8,6% ga ko'p), 7,2 ming tonna kartoshka (36,0% ga ko'p), 16,8 ming tonna sabzavot (19,0% ga ko'p), 1,9 ming tonna poliz (0,1% ga kam) yig'ib olindi hamda 15,2 ming tonna meva va rezavorlar (3,1% ga kam), 0,8 ming tonna uzum (19,9% ga ko'p), etishtirildi.

2019 yilning 1 iyul holatiga fermer xo'jaliklarida 27,9 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 10,5 ming bosh sigir, 26,7 ming bosh qo'y va echkilar, 469 bosh ot, 2061,4 ming bosh parrandalar mavjud. 2018 yilning 1 iyul holatiga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 23,2%ga, shu jumladan sigirlar 33,3%ga, qo'y va echkilar soni esa 5,9%ga, otlar 20,3%ga ko'paydi, , parrandalar esa 0,6%ga kamaydi.

Chorva mollari va parrandalar bosh soni ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 69-227-84-82
• 69-227-84-83